

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KONGRUENTLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEKNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КОНГРУЭНТНОСТИ У БУДУ- ЩИХ УЧИТЕЛЕЙ.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE CONGRUENCE ABILITY OF FUTURE TEACHERS.

OLIMOV SHIRINBOY SHAROFOVICH

Buxoro davlat universiteti professori

QOBILOVA NILUFAR XUDOYSHUKUROVNA

Qarshi davlat texnika universiteti dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarining o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda muammoli ta’lim, interaktiv metodlar, simulyatsiya va loyihaviy texnologiyalarning talabalar kommunikativ kompetensiyasi hamda refleksiv tafakkurini oshirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Olingan natijalar asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va emotsional barqarorligini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kongruentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, refleksiv yondashuv, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируется роль современных образовательных технологий в развитии конгруэнтности у будущих учителей. В исследовании освещаются возможности проблемного обучения, интерактивных методов, симуляций и проектных технологий в повышении коммуникативной компетентности и рефлексивного мышления студентов. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации, направленные на совершенствование профессиональной подготовки и эмоциональной стабильности будущих педагогов.

Ключевые слова: конгруэнтность, будущий учитель, современные образовательные технологии, рефлексивный подход, интерактивные методы, проблемное обучение, коммуникативная компетентность.

Abstract. This article provides a scientific, theoretical, and practical analysis of the role of modern educational technologies in developing the congruence ability of future teachers. The study highlights the potential of problem-based learning, interactive methods, simulations, and project-based technologies in enhancing students' communicative competence and reflective thinking. Based on the findings, practical recommendations have been developed to improve the professional preparation and emotional stability of future educators.

Keywords: congruence, future teacher, modern educational technologies, reflective approach, interactive methods, problem-based learning, communicative competence.

Adabiyotlar tahlili: Zamonaviy ta'lim sharoitida universitet talabalarida kongruentlik qobiliyatini samarali shakllantirish, kreativ tafakkurni jadal rivojlantirish, kasbiy vazifalarni mustaqil hal etish ko'nikmalarini, jamoada ishlash qobiliyatlarini takomillashtirish imkonini beruvchi, didaktik tamoyillarga tayangan pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish olimlar va pedagog-novatorlarning (M. Choshanov, B.T. Lixachyov, V.P. Bepalko, I.P. Volkov, V.M. Monaxov va boshqalar) «pedagogik texnologiya» tushunchasiga nisbatan qarashlari xilma-xil ekanligini ko'rsatadi.

1960-yillarning boshlarida ta'lim nazariyasida paydo bo'lgan «pedagogik texnologiya» tushunchasini uchta asosiy jihatda ko'rib chiqish mumkin [1] ya'ni:

- ilmiy jihatdan, pedagogik fanning tarkibiy qismi sifatida ta'lim maqsadlari, mazmuni va o'qitish metodlarini o'rganuvchi hamda pedagogik jarayonlarni loyihalovchi sohani anglatadi;

- jarayonli-tavsifiy jihatdan, rejalashtirilgan ta'lim natijalarga erishishga qaratilgan maqsadlar, mazmun, metod va vositalar majmuasini, ya'ni ta'lim jarayoni algoritmini ifodalaydi;

- jarayonli-amaliy jihatdan, texnologik jarayonni amalga oshirish, shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning barchasini faoliyatda qo'llashni nazarda tutadi.

Pedagogik texnologiya bu barcha shaxsiy, instrumental va metodologik pedagogik maqsadlarning tizimli majmuasi hamda ularning belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish jarayonidir [3]

Селевко Г.К. ning fikricha har bir alohida kasbiy sohada innovatsion pedagogik texnologiyalarni tanlash bir xil bo'lishi mumkin emas, ammo har qanday pedagogik texnologiya asosiy metodologik talablarga (texnologiyalik kriteriyalariga) javob berishi lozim [4]. Bu talablar quyidagilardan iborat:

1. Konseptuallik – har bir pedagogik texnologiya muayyan ilmiy konsepsiyaga asoslanishi kerak. Bu konsepsiya ta'lim maqsadlariga erishishda falsafiy-pedagogik, didaktik va ijtimoiy-pedagogik asoslarni o'z ichiga oladi.

2. Tizimlilik – pedagogik texnologiyaning muhim metodologik xususiyatlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonining barcha elementlari o'zaro uzviy bog'langan, mantiqiy izchillikka ega bo'lgan yagona tizim sifatida tashkil etilishini anglatadi.

3. Boshqaruvchanlik – pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonini ilmiy asosda maqsadli tashkil etish, rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish imkoniyatini ta'minlaydi.

4. Samaralilik – pedagogik texnologiyalarni muayyan ta'lim sharoitida maqsadga muvofiq qo'llashni nazarda tutadi. Ularning samaraliligi, bir tomondan, ta'lim jarayoni yakunida belgilangan natijalarga erishish darajasi, ikkinchi tomondan esa resurslar (vaqt, moddiy-texnik vositalar, mehnat) sarfi jihatidan optimallik bilan belgilanadi.

5. Takrorlanish imkoniyati – pedagogik texnologiyaning boshqa bir xil yoki o'xshash ta'lim muassasalarida, shuningdek, boshqa pedagoglar yoki ta'lim subyektlari tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilishi, takrorlanishi va qayta ishlanishi imkoniyatidir.

Ta'lim maqsadlari va shaxsni rivojlantirish manfaatlarini inobatga olgan holda pedagogik texnologiyalarda ustuvor yo'nalishlarni belgilash muhim ahamiyatga ega [5,6]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida, kongruentlik qobiliyatini shakllantirishda eng samarali hisoblanganlari quyidagilar:

- loyiha usuli (Project Method);
- individual va differensirlangan ta'lim;
- muammoli ta'lim texnologiyalari.

Kongruentlik qobiliyati talabalarda ta'lim jarayonida shakllantiriladi, bu yerda asosiy rol loyiha usuliga tegishli [2]. Loyiha usuli bu kompleks pedagogik metod bo'lib, o'quv jarayonini talabalar individual va guruh

manfaatlariga mos ravishda tashkil etishga imkon beradi. Ushbu usul orqali talabalar o'z faoliyati natijalarini rejalashtirish, tashkil etish va baholashda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi: Pedagogik nuqtai nazardan kongruentlik o'qituvchining nutqi, harakati, emotsional munosabati va pedagogik pozitsiyasining o'zaro muvofiqligidir. Agar pedagog ta'lim jarayonida bir narsani ta'limiy jihatdan targ'ib qilib, amalda boshqa munosabatni namoyon etsa, bu holat talabalarda ishonchsizlik va kommunikativ to'siqlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ta'lim texnologiyalarini amalga oshirish jarayonida pedagogning kongruentlik qobiliyati muhim psixologik-pedagogik shartlardan biri sifatida qaraladi.

Masalan, muammoli ta'lim texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyada o'qituvchi talabalarni mustaqil fikrlashga undab, muammoli vaziyatni hal etishga yo'naltiradi. Agar pedagog haqiqatan ham erkin fikrlashni qo'llab-quvvatlasa va talabalarning turli fikrlariga nisbatan ochiq munosabat bildirsa, uning nutqi va pedagogik pozitsiyasi o'rtasida uyg'unlik yuzaga keladi. Masalan, o'qituvchi dars jarayonida "har bir fikr muhim" deb ta'kidlab, amalda faqat bir xil javoblarni qabul qilsa, bu holat kongruentlikning buzilishiga olib keladi. Aksincha, turli nuqtai nazarlarni muhokama qilishga imkon berish pedagogning kongruent pozitsiyasini namoyon etadi. Interaktiv ta'lim texnologiyalari ham bo'lajak o'qituvchining kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, "debat", "akvarium", "keyc-stadi" kabi usullar talabalarni ochiq muloqot, fikr almashish va dalillashtirilgan bahs-munozara jarayoniga jalb etadi. Bu jarayonda pedagog nafaqat tashkilotchi, balki muloqot ishtirokchisi sifatida ham ishtirok etadi. Agar u talabalarni hurmat qilish, fikrlar xilmaxilligini qabul qilish va konstruktiv muloqotni rag'batlantirish tamoyillariga amal qilsa, uning

pedagogik faoliyatida kongruentlik namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, reflektiv ta'lim texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarda o'z-o'zini anglash va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Refleksiya jarayonida talabalar o'z pedagogik nutqi, muloqot uslubi va emotsional reaksiyalarini tahlil qiladilar. Masalan, darsdan keyin "Men talabalar bilan muloqotda qanchalik ochiq va samimiy bo'ldim?", "Mening nutqim va harakatlarim bir-biriga mos keldimi?" kabi savollar asosida tahlil olib borish pedagogik kongruentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida simulyatsiya va rolli o'yin texnologiyalari ham kongruentlikni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar turli pedagogik vaziyatlarni modellashtiradilar va pedagogik muloqotning turli uslublarini sinab ko'radilar. Masalan, konfliktli vaziyatni hal qilish bo'yicha rolli o'yin davomida bo'lajak o'qituvchi o'z nutqi, intonatsiyasi va emotsional munosabatining o'zaro muvofiqligini namoyon etishi kerak. Agar u tinchlantiruvchi nutqdan foydalanib, amalda keskin munosabat bildirsa, bu holat kongruentlikning yetishmasligini ko'rsatadi. Quyida biz dars mashg'ulotlarida loyihaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchining kongruentlik qobiliyatini rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ko'rib chiqamiz:

Quyida biz dars mashg'ulotlarida loyihaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchining kongruentlik qobiliyatini rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ko'rib chiqamiz. Mazkur texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchining ichki qadriyatlari, kasbiy pozitsiyasi hamda uning nutqiy va kommunikativ xatti-harakatlari o'rtasidagi uyg'unlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Loyiha asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak pedagoglarni mustaqil fikrlash, o'z faoliyatini reflektiv tahlil qilish va pedagogik muloqotda samimiy hamda izchil pozitsiyani namoyon etishga yo'naltiradi.

“Metareja” texnologiyasi

Reja – bu ma’lum bir davr uchun rejalashtirilgan ish tartibi; “meta” har qanday hodisaning super, makro darajasini anglatadi. Ya’ni, metareja – bu tashkiliy faoliyatning super tartibi, bir qator taktik buyruqlarni o’z ichiga olgan strategik ish tartibi. Metareja – bu turli xil turdagi jamoaviy, guruhli va individual faoliyatlar tizimi bo’lib, bir faoliyatning oraliq natijalari boshqasini tashkil qilish uchun manba bo’lib xizmat qiladi.

Texnologiyaning maqsadlari ma’um bir muammoni hal qilish uchun individual va guruhli fikrlash jarayonlarini tashkil qilishdan iborat bo’lib, har bir ishtirokchi muhokama qilinayotgan muammo bo’yicha individual tajriba texnologiyasini ishlab chiqadi va uni guruh ishi natijasida boyitadi.

Texnologiyani joriy etish shartlari:

- Ishtirokchilarning optimal soni 15-30 ta.

Kerakli jihozlar:

- ishtirokchilar soniga qarab rangli qog’oz varaqlari (3 ta rang, masalan, oq, yashil, qizil) (har bir ishtirokchiga 3 ta rangli qog’oz varaq beriladi);

- har bir ishtirokchi uchun ruchkalar, 3-5 ta katta qog’oz varaqlari (gazetalar ham bo’ladi);

- 3-6 ta belgi (har bir guruh uchun 1-2 ta).

Texnologiyani joriy etish tartibi.

Texnologiyani joriy etish quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi.

Birinchi bosqich. Muammoli savollarni aniqlash va shakllantirish.

O’qituvchi (texnologiyani joriy etishni nazorat qiluvchi) texnologiya ishtirokchilarini 5-10 daqiqa ichida berilgan mavzu bo’yicha ularni qiziqtirgan bir nechta muammolar va savollarni shakllantirishga taklif qiladi (masalan, ta’lim jarayonini tashkil etish yoki ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yoki pedagogik diagnostika mohiyati va boshqalar).

Mavzu har qanday bilim sohasidan tanlanishi mumkin.

Keyin ishtirokchilar so’rovnoma o’tkazadilar va o’qituvchi barcha noyob

muammoli savollarni yozib oladi, ulardan uchta yetakchi savol aniqlanadi.

Masalan, “Ta’lim jarayonini tashkil etish” mavzusida quyidagi uchta yetakchi muammo aniqlangan.

1. Insonning kongruentligi nima?

2. Ta’lim jarayonining mazmunini belgilovchi yetakchi g’oya nima?

3. O’qituvchi talabalarning kongruentligini optimal rivojlantirish uchun qanday sharoitlarni yaratishi kerak?

Ikkinchi bosqich. Rangli qog’ozlarga muammolar va savollarni yozib berish. O’qituvchi har bir ishtirokchiga uchta rangli qog’oz varaqlarini tarqatadi. Bu holda, rang individual muammolarni yaxshiroq belgilaydi va texnologiyaning vizual loyihasining aniqligi va ifodaliligini oshiradi.

Har bir qog’oz varag’iga ishtirokchilar mos keladigan muammoli savollarni yozadilar. Masalan, oq qog’oz varag’iga birinchi savol: Insonning kongruentligi nima? deb yozilgan. Yashil qog’oz varag’iga ikkinchi savol: Ta’lim jarayonining mazmunini belgilovchi yetakchi g’oya nima? Qizil qog’oz varag’iga uchinchi savol: O’qituvchi talabalarning kongruentligini optimal rivojlantirish uchun qanday sharoitlarni yaratishi kerak?

Uchinchi bosqich. Shaxsiy loyiha yaratish. Texnologiyaning har bir ishtirokchisi 20-30 daqiqa ichida rangli qog’oz varaqlariga yozilgan savollarga yozma ravishda javob beradi (javoblar xuddi shu varaqlarga yozib qo’yiladi).

To’rtinchi bosqich. Ishtirokchilarning o’zlarining individual loyihalarini taqdim etishlari kerak. Har bir ishtirokchi xona bo’ylab aylanib, uchta muammo/savolga ham o’z javoblarini (batafsil izohlarsiz) o’qib eshittiradi. Texnologiya ishtirokchilari o’rtasida loyihalar (javoblar) almashinuvi sodir bo’ladi.

Beshinchi bosqich. Ijodiy guruhlarda individual loyihalarni tahlil qilish va umumlashtirish. Ushbu bosqichda quyidagi tadbirlar tashkil etiladi va amalga oshiriladi:

- texnologiya ishtirokchilari orasidan

taxminan teng hajmdagi uchta ijodiy guruh tuziladi;

- loyihalar yozilgan rangli qog'oz parchalari uchta ustunga (rang bo'yicha) bo'linadi (ularni devorga yopishtirish mumkin);

- har bir ijodiy guruhdan muammoli savollardan biri bo'yicha individual loyihalarni tahlil qilish va umumlashtirish so'raladi;

- ijodiy guruhlar 20-30 daqiqa davomida individual loyihalarni tahlil qiladi va umumlashtiradi, umumlashtirilgan loyiha ishlab chiqadi;

- ijodiy guruhlar o'zlarining guruh loyihasini aniqlash natijalarini qog'oz varaqlarida ifodalash uchun markerlardan foydalanadilar (diagrammalar, grafiklar, jadvallar chizadilar, ta'riflar yozadilar va hokazo).

Oltinchi bosqich. Ijodiy guruhlar ishlari natijalarini taqdim etish. Har bir ijodiy guruh o'z ishining natijalarini navbat bilan taqdim etadi. O'qituvchi har bir guruhning chiqishi

haqida fikr bildiradi.

Yettinchi bosqich. Faoliyat natijalari haqida mulohaza yuritish. Har bir ishtirokchi

- mashg'ulot davomida o'zining hissiy holatini tahlil qiladi;

- guruhning bir qismi sifatida individual ish faoliyatini baholaydi;

- muhokama qilinayotgan masalalar va muammolar bo'yicha o'z fikrlarini shakllantiradi;

- o'z faoliyatida joriy etilayotgan texnologiyaning imkoniyatlarini baholaydi.

O'qituvchi) dars mashg'uloti doirasidagi qo'shma faoliyat va o'zaro ta'sirlarni umumlashtiradi.

Ob-havo ma'lumoti texnologiyasi

Ushbu texnologiyani amalga oshirish uchun zaruriy faoliyat bu "texnologik xarita": Koordinatalar o'qi tasvirlangan katta qog'oz varag'i: vertikal o'q hissiy holatning, ruhiy munosabatning t°C qismidir; gorizont o'q ishtirokchilardir.(1-rasm).



1-rasm. Texnologiyani joriy etish uchun namunaviy jarayon jadvali

Texnologiyani amalga oshirish o'qituvchining barcha ishtirokchilarni "ob-havo ma'lumoti" orqali o'zlarining hissiy va ruhiy holati haqida gapirishga taklif qilishidan boshlanadi, ya'ni:

- o'zingizning ichki holatingizni tavsiflang:

- "Kayfiyatingiz yilning qaysi vaqtiga mos keladi?";

- "Bulutlimi yoki tiniqmi?";

- "Shamollimi yoki tinchmi?";

- "Yog'ingarchilik bormi?";


- "Kunning qaysi vaqti?";

- "Harorat qanday?" (haroratni aniqlashda

qat'iy shart qo'yiladi - 0 dan +10 C gacha bo'lgan haroratni aniqlash).

Har bir ishtirokchi, o'z navbatida, o'zining ruhiy va hissiy holatini tasvirlaydi. O'qituvchi har bir ishtirokchi uchun ushbu holatning (haroratning) yakuniy ko'rsatkichini jarayon

jadvaliga marker bilan yozib qo'yadi. Barcha ishtirokchilar gapirgandan so'ng, o'qituvchi (u o'z holatini birinchi bo'lib xabar qiladi) barcha harorat ko'rsatkichlarini grafikka bog'laydi (2-rasm).



2-rasm. "Ob-havo ma'lumoti" texnologiyasini joriy etishda jarayon xaritasini to'ldirish imkoniyati

Jadval tuzilgandan so'ng, o'qituvchi ishtirokchilarni uni tahlil qilishga va unga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishga taklif qiladi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi otalaba individual ekanligini, har birining o'z hissiy holati va dunyoqarashiga ega bo'lish huquqiga ega ekanligini ta'kidlaydi; tuzilgan grafik buni tasdiqlaydi.

Loyihaviy yondashuv asosida tashkil etilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik muloqotning muhim sifatlaridan biri bo'lgan kongruentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni egallaydilar, balki o'z kasbiy pozitsiyasini ongli ravishda namoyon etish, pedagogik muloqotda izchillik va samimiylkni ta'minlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Xulosalar va takliflar: Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik nuqtai nazardan kongruentlik bo'lajak o'qituvchining nutqi, xatti-harakati, emotsional munosabati va kasbiy pozitsiyasining o'zaro uyg'unligini ifodalovchi muhim psixologik-pedagogik sifat ekanligini tasdiqlaydi. Kongruentlikning

ta'lim jarayonida namoyon bo'lishi pedagogik muloqot samaradorligini oshiradi, talabalar bilan ishonchli va ochiq munosabatni shakllantiradi hamda o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pedagogik faoliyatda kongruentlikning yetishmasligi talabalar tomonidan pedagogga nisbatan ishonchsizlik, kommunikativ to'siqlar va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Aksincha, kongruent pedagog o'zining ichki qadriyatlarini va tashqi pedagogik faoliyati o'rtasida uyg'unlikni ta'minlab, ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi. Tadqiqot davomida muammoli, interaktiv, refleksiv, simulyatsion va loyihaviy ta'lim texnologiyalarining bo'lajak o'qituvchilarda kongruentlik qobiliyatini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy asoslandi. Xususan, muammoli ta'lim texnologiyasi mustaqil fikrlash va ochiq pozitsiyani shakllantirishga xizmat qilsa, interaktiv metodlar (debat, akvarium, case-study) muloqot madaniyatini rivojlantiradi. Refleksiv texnologiyalar esa o'z-o'zini anglash va pedagogik faoliyatni

tahlil qilish ko'nikmalarini takomillashtiradi. Simulyatsiya va rolli o'yinlar esa real pedagogik vaziyatlarda kongruent xulq-atvorni shakllantirish imkonini beradi.

Shuningdek, "metareja" texnologiyasi asosida tashkil etilgan faoliyat talabalarning individual va guruhviy fikrlash jarayonlarini uyg'unlashtirish, muammolarni tizimli tahlil qilish hamda pedagogik qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Oliy pedagogik ta'lim jarayoniga kongruentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus metodik tizimni joriy etish, bunda muammoli, interaktiv va refleksiv texnologiyalardan kompleks foydalanish zarur.

1. Bo'lajak o'qituvchilarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish maqsadida muntazam o'z-o'zini tahlil qilish mexanizmlarini joriy etish, jumladan, refleksiv kundaliklar, video-tahlil va feedback tizimlarini keng qo'llash.

2. Pedagogik amaliyot jarayonida simulyatsiya va rolli o'yin texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, bu orqali real

pedagogik vaziyatlarda kongruent xulq-atvorni shakllantirish.

3. "Metareja" va loyihaviy yondashuv asosidagi texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish, bu esa talabalarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kommunikativ va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, chunki ular kongruentlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

5. Ta'lim muhitida ochiq va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitni yaratish, bu bo'lajak pedagoglarning ichki salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kongruentlik bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida muhim integrativ sifat bo'lib, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish ta'lim tizimi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta'lim jarayonini takomillashtirish, pedagogik faoliyat sifatini oshirish hamda raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

Foydalanilgan adabiyotlar :

XXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXXX

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
2. Теория и методика обучения / В.С. Кукушин. – Ростов н/Д.: Феникс, 2005. – 474, с.
3. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе (Анализ зарубежного опыта). – М., 1989. 2. Колеченко А.К. Энциклопедия п.
4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
5. Троянская С.Л. Педагогическая коммуникация: методология, теория и практика. – Изhevск: УдГУ, 2011. – 148 с.
6. Кузмина Ю.В. Интуитивное чувство числа: проблем измерения и контрол визуалних свойств // Теоретическая и экспериментальная психология. – 2018. – №1.
URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/интуитивное-чувство-числа-проблем-измерения-и-контрол-визуал-свойств>
7. Карякин Ю.В. Конгруентность как характеристика учебного протсесса // Современне наукоемкие технологии. – 2007. – №3. – С. 36–37.
8. Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов вузов. – М.: Академия, 2017. – 512 с.
9. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1988. – 416 с.
10. Коменский Я.А. Великая дидактика. – М.: Педагогика, 1982. – 336 с.
11. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 2006. – 352 p.
12. Deci E., Ryan R. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.